

“TASDIQLAYMAN”
SamDChTI rektori
B.A. Xolikov

“ _____ ” aprel 2025-yil

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI IQTIDORLI
YOSHLARINING G‘OYA VA LOYIHALARINI QO‘LLAB-
QUVVATLASH MAQSADIDA YOSH TADQIQOTCHILAR,
MAGISTRLAR HAMDA TALABA-YOSHLAR O‘RTASIDA
O‘TKAZILADIGAN
“KELAJAK LOYIHALARI” STARTAP LOYIHALAR TANLOVI
N I Z O M I**

Samarqand-2025

Samarqand davlat chet tillar instituti iqtidorli yoshlarining g'oya va loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tayanch doktorantlar, magistrlar hamda talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan "Kelajak loyihalari" startap loyihalar tanlovi

N I Z O M I

I. Umumiy qoidalar

1. Ilmiy va innovatsion g'oyalar, loyihalarni saralab olish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Kelajak loyihalari" startap loyihalar tanlovini (keyingi o'rinlarda – Tanlov) oliy ta'lim muassasasidagi, yoshlarning ilmiy va innovatsion salohiyatini namoyon etish, mazkur sohadagi istiqbolli loyihalarni dastlabki bosqichda aniqlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, tijratlashtirish darajasiga olib chiqishga va o'z navbatida, loyihani amaliyotga joriy etishga qaratilgan. Shu bilan birga Tanlov to'g'risidagi Nizom Tanlov o'tkazish shartlari, g'oliblarni aniqlash va ularni taqdirlash tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning institut bosqichlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi Milliy ofisi hamda institut bilan birgalikda tashkil etiladi.

3. Tanlov qatnashchilari o'rtasida ilmiy va innovatsion loyiha yo'nalishlarida ilmiy-texnik ijodkorlik va ixtirochilikni rag'batlantirish, innovatsion faollikni oshirish hamda yangi texnika, texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

4. Tanlovda ishtirok etayotgan qatnashchilarning loyihalarini baholash va g'oliblarni aniqlash uchun tegishli soha mutaxassislaridan iborat, besh kishidan kam bo'lmagan tarkibdagi Tanlov komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya) tuziladi hamda Komissiya kotibi aniqlanadi.

5. Tanlovning fakultet hamda institut bosqichlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni institutning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

II. Tanlovni o'tkazish tartibi, muddatlari va shartlari

6. Tanlovda ishtirok etuvchi yoshlarni aniqlash maqsadida institutning veb sahilari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon berilib, 10 kun davomida ishtirokchilar ro'yxatga olinadi.

7. Tanlov ishtirokchilari ro'yxatdan o'tishda aniq bir muammo yoki mavjud potensial imkoniyatdan kelib chiqqan holda innovatsion xarakterga ega g'oya yoki loyihani taklif etishlari lozim.

8. Tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lgan ishtirokchilar yakka o'zi yoki ko'pi bilan to'rt nafar ishtirokchidan iborat jamoa bo'lib ro'yxatdan o'tishlari mumkin.

9. Tanlov quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- Rasmiy ochilish marosimi – 1-kun;
- Loyihalar taqdimoti – 2-4-kunlar;- Yopilish marosimi va g'oliblarni taqdirlash – 5-kun.

10. Rasmiy ochilish marosimi – institutda Tanlovning rasmiy ochilish marosimi o'tkaziladi. Unda institut rahbariyati, talaba yoshlar va Tanlov ishtirokchilari qatnashadi. Ochilish marosimida Tanlov ishtirokchilariga Tanlovni o'tkazish tartiblari, loyihalarni

baholash mezonlari, g'oliblarni rag'batlantirish va loyihalarni moliyalashtirish to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi.

11. Loyihalar taqdimoti – Tanlovning har bir ishtirokchisi o'z loyihalarini Komissiya a'zolariga taqdimot qilishadi. Har bir ishtirokchiga taqdimot qilish uchun 5 daqiqa vaqt, savol-javoblar uchun qo'shimcha 2 daqiqa vaqt beriladi. Loyihalarni baholash mazkur nizomning 4-ilovasida ko'rsatilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi. Loyihalar taqdimoti jarayonida Komissiya kotibi tomonidan Komissiya bayoni yuritiladi. Loyihalar taqdimoti yakunida Komissiyaning har bir a'zosi tomonidan qo'yilgan ballar umumlashtiriladi.

12. Yopilish marosimi va g'oliblarni taqdirlash Tanlov ishtirokchilarining loyihalarini baholash natijasida eng yuqori natija ko'rsatgan 3 ta loyiha Oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan Tanlov g'oliblari deb e'lon qilinadi.

13. Tanlov ishtirokchilari, Komissiya a'zolari, Komissiya a'zolarining qo'ygan ballari, Tanlov g'oliblari va ularning ishlanmalari to'g'risidagi ma'lumotlar Komissiyasining bayonida ko'rsatiladi hamda a'zolari tomonidan imzolanadi.

14. Natijalar Komissiya tomonidan bayon bilan tasdiqlanib, Oliy ta'lim muassasasining mas'ul vakiliga taqdim etilganidan so'ng, yakuniy (hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib) hisoblanadi va komissiya qarori bo'yicha Oliy ta'lim muassasasi izoh bermaydi. Tanlov natijalari va g'oliblarini e'lon qilish hamda taqdirlash marosimi Tanlovning oxirgi kuni amalga oshiriladi.

15. Oliy ta'lim muassasalari Tanlov ishtirokchilarini tanlovning talab va shartlari to'g'risida xabardor qiladi, tanlov yakunlari bo'yicha g'oliblarga xabar beradi va ularni taqdirlashni tashkil etadi.

16. Komissiyasi a'zolari, institutning va homiylik qiluvchi tashkilotlarning xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Tanlovda ishtirok etish huquqiga ega emas.

III. Ishlanmalarni baholash mezonlari

Tanlovda ishtirok etish uchun ajratib olingan ishlar quyidagi mezonlar asosida, har bir mezon uchun alohida 10 ballik tizim bo'yicha baholanadi:

- G'oya yoki loyiha ilmiy va innovatsion yangiligi;
- G'oya yoki loyiha aniq bir muammoning yechimiga yo'naltirilganligi;
- Mavjud analoglaridan afzalligi;
- Biznes modeli va monetizatsiyasi;
- G'oyaning amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar;
- Loyiha taqdimotining mukammalligi;
- Loyiha pasporti, biznes-rejasi va xarajatlar smetasi hujjatlari to'ldirilganligi.

17. Tanlov ishtirokchilari Komissiya a'zolariga loyiha ilmiy va amaliy hamda ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib bera olishini namoyish etishi lozim.

18. G'oliblarni aniqlashda baholash jarayoni davomida har bir ishtirokchiga komissiya a'zolari tomonidan qo'yilgan ballar umumlashtiriladi va komissiya a'zolari soniga bo'linadi. Eng yuqori ball to'plagan 3 nafar ishtirokchi g'olib deb hisoblanadi.

19. Ishtirokchilar tomonidan to'plangan ballar soni bir xil bo'lib qolgan taqdirda, komissiya a'zolari tomonidan ovoz berish usuli bilan g'olib aniqlanadi.

20. Loyiha ilmiy yangiligini va zamonaviyligini ko'rsatish maqsadida uning analoglari bilan solishtirish imkonini beruvchi ma'lumotlarni, stendlar yoki boshqa qurilmalarda test va sinovdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot berishlari lozim.

Agar ishlanma tanlovda ishtirok etgan yoki patentlangan bo'lsa bu haqda tegishli ma'lumotlar taqdim etiladi.

IV Tanlov g'oliblarini mukofotlash

21. Tanlov yakunlariga ko'ra eng yuqori natijaga ega bo'lib, 1-2-3-o'rinlarni egallagan g'oliblar (jamoalar) quyida ko'rsatilgan miqdordagi pul mukofotlari yoki mazkur qiymatdagi qimmatbaho esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadilar (mazkur sovg'alar loyiha amaliyotga joriy qilingandan so'ng institut tomonidan jamoalarga rag'batlantirish tariqasida beriladi) hamda 50 mln (ellik million) so'mdan ko'p bo'lmagan miqdorda moliyalashtirishga tavsiya etiladi:

1-o'rin–noutbuk (loyihaning foydalilik darajasiga ko'ra jamoaning har bir a'zosiga yoki butun jamoa uchun taqdim etiladi);

2-o'rin–televizor (loyihaning foydalilik darajasiga ko'ra jamoaning har bir a'zosiga yoki butun jamoa uchun taqdim etiladi);

3-o'rin–planshet (loyihaning foydalilik darajasiga ko'ra jamoaning har bir a'zosiga yoki butun jamoa uchun taqdim etiladi);

22. Tanlovni g'oliblarini taqdirlash bilan bog'liq sarf-xarajatlar institutning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

23. Homiyilar taqdim etgan qimmatbaho buyum va yoki esdalik sovg'alar homiyilar bilan kelishilgan tartibda g'oliblarga yoki yuqori ko'rsatkichlarga ega, faol ishtirokchilarga ham (rag'batlantiruvchi sovg'a sifatida) topshiriladi.

24. Ushbu Nizom, Tanlov to'g'risidagi ma'lumotlar va uning natijalari oliy ta'lim muassasasining rasmiy web-sayti va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

V Startup-loyihalarni amalga oshirish tartibi

25. Tanlov komissiyasi tomonidan moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilingan loyihani amalga oshirish tartibi institut hamda loyiha rahbari o'rtasida tuziladigan shartnoma (keyingi o'rinlarda – shartnoma) va kafolat xati asosida tartibga solinadi. Bunda, Tanlov komissiyasi qarori bilan belgilangan loyihani moliyalashtirish va amalga oshirish bilan bog'liq shartlar shartnomada majburiy tarzda belgilanishi lozim.

26. Shartnoma tuzish masalasida mazkur loyihani moliyalashtirish to'g'risida qaror chiqqan kundan boshlab ikki oygacha bo'lgan muddatda kelishuvga erishilmagan taqdirda, Tanlov shartlari bajarilmagan deb hisoblanadi va bu holat kelgusida mazkur loyihani moliyalashtirishni rad etishga asos bo'ladi.

27. Loyihaning samarali, sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga oid chora-tadbirlar loyiha rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

28. Loyihalarni moliyalashtirish Institut Innovatsion jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

VI Startup-loyihalarning natijadorligini baholash

29. Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish davomida loyiha rahbari tomonidan har chorakda oraliq hisobotlar hamda loyihani amalga oshirish muddati yakunlangan kundan boshlab o'n besh kun ichida yakuniy hisobot taqdim etiladi.

30. Oraliq va yakuniy hisobotlar shartnomada belgilangan majburiyatlarning bajarilishi holatini hamda loyiha doirasida erishilgan natijalarni o'z ichiga olishi lozim.

31. Tanlov komissiyasi yakuniy hisobotni loyiha rahbari ishtirokida ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirilgan deb hisoblab, loyiha natijalarini qabul qilish to'g'risida;

- loyihani to'liq yakunlash uchun qo'shimcha muddat belgilash to'g'risida.

27. Loyihani to'liq yakunlash uchun belgilangan qo'shimcha muddat yakunlangan kundan boshlab o'n besh kun ichida qayta yakuniy hisobot taqdim etiladi.

28. Tanlov komissiyasi qayta taqdim etilgan yakuniy hisobotni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirilgan deb hisoblab, loyiha natijalarini qabul qilish to'g'risida;

- loyihadan ko'zlangan natijalarga to'liq yoki qisman erishilmagan deb hisoblab, loyiha natijalarini qabul qilmaslik to'g'risida.

29. Loyiha natijalari Tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilinmagan taqdirda, shartnomada va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Institut manfaatlariga yetkazilgan zararni undirish choralari ko'riladi.

VII Yakuniy qoidalar

30. Loyiha rahbari quyidagilar uchun javobgardir:

- loyiha hujjatlarining mazkur Nizom hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilishi;

- taqdim etiladigan hujjatlar, ma'lumotlar va axborotlarning o'z vaqtida, sifatli va ishonchli bo'lishi;

- loyihani o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish; axborot xavfsizligini ta'minlash;

- shartnoma shartlari, mazkur Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etish.

Samarqand davlat chet tillar
institutida o‘tkaziladigan “Kelajak
loyihalari” nomli startap loyihalar
tanlovini amalga oshirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
1-ilova

**Loyihalarni tanlab olish va moliyalashtirish
tanlovida ishtirok etish uchun
ARIZA**

Men, F.I.Sh. (*loyiha mavzusi*) Samarqand davlat chet tillar instituti Registrator
ofisi hamda Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi
tomonidan tashkil etilayotgan “Kelajak loyihalari” tanlovida
_____yo‘nali
shida ishtirok etishim uchun meni ro‘yxatga olishingizni so‘rayman.

Sana _____

Imzo _____

Samarqand davlat chet tillar institutida
o'tkaziladigan "Kelajak loyihalari" nomli
startap loyihalar tanlovini amalga oshirish
tartibi to'g'risidagi nizomga
2-ilova

**Loyihalar tanlovi mavzusini
shakllantirish bo'yicha
ASOSNOMA**

(Har bir mavzu bo'yicha alohida (davlat tilida) to'ldiriladi)

- | | |
|--|--|
| 1. Mavzu nomi | <input type="text"/> |
| 2. Mavzu tashabbuskorining familiyasi, ismi va otasining ismi | <input type="text"/> |
| 3. Qo'lga kiritilishi rejalashtirilayotgan yakuniy natijaning tavsifi | <i>Loyiha yakunida qo'lga kiritiladigan natija – mahsulot, yangi ishlanma, texnologiyaning aniq tavsifi qisqa va lo'nda bayon etilishi lozim.</i> |
| 4. Ehtiyoj (talab)ning mavjudligi (yetarliligi) to'g'risida tahliliy ko'rsatkichlar | <i>Loyiha yakunida qo'lga kiritiladigan natijaga qaysi tarmoqda (sohada) qancha talab/ehtiyoj mavjudligi aniq raqamlarda ko'rsatilishi lozim</i> |
| 5. Yaratiladigan yangi ishlanmaning mavjud analoglaridan qiyosiy ustunligini ko'rsatuvchi indikatorlar | <i>Loyiha yakunida qo'lga kiritiladigan natijaning mavjud analoglari bilan taqqoslangan holda qiyosiy ustunligi raqamlar bilan solishtirilishi, tahlil qilinishi zarur.</i> |
| 6. Yaratiladigan yangi ishlanmani amaliyotga joriy etish uchun zarur infratuzilmaning mavjudligi | <i>Loyiha yakunida yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot ishlab chiqarish/xizmat ko'rsatish uchun resurs/xom-ashyo bazasi va zarur infratuzilmaning (ilmiy laboratoriya, kelgusida seriyalab ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish bazasi) mavjudligi asoslab berilishi lozim.</i> |
| 7. Mavzu doirasida bajariladigan loyihaning moliyalashtirish hajmi asoslanganligi | <i>Mavzu doirasida bajariladigan loyihani amalga oshirish (yangi ishlanmani yaratish) uchun sarflanadigan xarajatlardan kelib chiqib, moliyalashtirish hajmi miqdori asoslab berilishi lozim.</i> |

Asosnomani
shakllantiruvchining F.I.O.,
lavozimi (ta'lim bosqichi,
fakultet va guruhi)

Sana

“ ”

(imzo)

2025-yil.

LOYIHA PASPORTI

№	Talab etiladigan ma'lumotlar	Ma'lumotlar
	Loyihaning nomi <i>(o'zbek, rus yoki ingliz tillarida)</i>	
	Loyihaning amalga oshirish faoliyat turi <i>(xizmatlar, ishlab-chiqarish va boshqalar)</i>	
	Loyiha rahbari <i>(loyihaning asosiy ijrochisi)</i>	
	Loyiha haqida qisqacha ma'lumot	
4.	Tanlov yo'nalishi	
	<ul style="list-style-type: none"> • Ta'lim olayotgan fakultet nomi kurs, guruhi 	
	Texnologiya/xizmat/mahsulotning qo'llanilish sohasi yoki tarmoqlari <i>(berilganlardan bir yoki bir necha varianlarni tanlang)</i> <ul style="list-style-type: none"> • Ta'lim • Turizm • Tarjimon • Siyosatshunoslik • Jurnalistika • Va boshqalar 	
	Loyihaning asosiy mazmuni <i>(bir necha jumlar orqali loyihaning mazmunini izohlang)</i>	
	Loyihani tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri <i>(hududdagi va tarmoqdagi muammolarni hal qilishda loyihaning o'rni va roli ko'rsatilishi lozim)</i>	
	Loyihaning bosqichlari <i>(g'oya, prototip, dastlabki maket va boshqalar)</i>	
9.	Loyiha natijasini tijoratlash tirish inobatga olinganligi	
	Loyihani amalga oshirish muddati <i>(loyihaning boshlanish va tugashi (kun, oy))</i>	
	Umumiy moliyalashtirish hajmi <i>(mln so'mda)</i>	

Start-up va innovatsion loyihaning tijoratlash tirish-rejasi

1. **Rezyume** *(Loyihaning nomi, loyihani amalga oshirish joyi, loyiha uchun zarur moliyaviy resurslar summasi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ularning bozori (talab va taklif) haqida ma'lumotlar.*

2. **Loyihaning barcha ijrochilari haqida ma'lumot** (to'liq holda ismi-sharifi; tug'ilgan sanasi; aloqa uchun ma'lumotlar; mutaxassisligi va loyihadagi o'rni; loyihani amalga oshirish uchun loyiha ishtirokchilarida kerakli bilim va ko'nikmalar mavjudligini tavsif etish;).
3. **Loyiha haqida ma'lumot** (amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihaning mohiyati tavsifi, yangi mahsulot yoki xizmat turini yaratuvchi innovatsion ishlanmalarning qo'llanilishi, ko'lami va tez o'sish sur'ati haqida ma'lumotlar; avval qo'llanilmagan texnologiyalar va (yoki) jarayonni tashkil etish prinsiplari yoki avval ishlab chiqarilmagan mahsulotning yangi qo'llanilish darajasi; loyihaning investitsiyaviy jozibadorligi — qo'shimcha daromad keltiradigan hamda uni amalga oshirishda qulay investitsion va innovatsion sharoitlar va afzalliklari; loyihaning resurs bilan ta'minlanganligi; loyiha uchun ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi, import o'rnini bosadigan ilmiy hajmdor mahsulotlarni olishni tashkil qilish istiqbollari haqida ma'lumotlar).
4. **Loyihaning xarajatlar smetasi** (xarajatlar smetasi loyihaning umumiy muddatiga to'ldirilishi va xarajatlarni asoslovchi hisob-kitoblar (jadvallar) ilova qilinishi shart.

XARAJATLAR SMETASI

(loyiha nomi)		
Xarajat turlari	Summa (ming so'mda)	Umumiy xarajatlar- dagi ulushi foizda (%)
Xomashyo va materiallarni sotib olish bilan bog'liq xarajatlar		
Inventar, texnika va jihozlarni xarid qilish xarajatlari		
Boshqa xarajatlar		
Jami xarajatlar:		

Maket yoki dasturiy ta'minotni yaratish uchun xomashyo va materiallarni sotib olish bilan bog'liq xarajatlar

№	Mahsulotlar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi (ming so'mda)	Summasi (ming so'mda)
1					
2					
3					
...					
Jami:					

Inventar, texnika va jihozlarni xarid qilish xarajatlari

№	Mahsulotlar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi (ming so'mda)	Summasi (ming so'mda)
1					
2					
3					
...					
Jami:					

Loyihaning kalendar grafigi*

Yarim yil davomidagi faoliyat			1-oy	2-oy	3-oy	4-oy	5-oy	6-oy
Bosqichning №	Boshlanishi (oy)	Davomiyligi (oylar)						
1			Bosqichning nomi					
2			Bosqichning nomi					
...			Bosqichning nomi					

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Quyida keltirilgan ish reja namunasidan foydalaning va har bir bosqichni ko'rsatgan holda jadvalni to'ldiring.